



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
**FARG‘ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI**  
**BESHARIQ TUMAN YURIDIK XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZI**

150300, Beshariq tumani, Oltin Vodiy ko‘chasi, 46-uy, tel.: (998 73) 612 21 19,  
www.farg‘ona.adliya.uz, el.pochta: beshariq.t-yurmarkaz@adliya.uz

02.02.2022 yil

**Beshariq tuman**  
**Moliya bo‘limi**

**XULOSA**

(moliya bo‘limining  
NET 585-sonli shartnoma loyihasiga)

**1.Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2.Loyhaning nomi:** Internet va telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi № NET 585-sonli shartnoma.

**3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot:** Beshariq tuman moliya bo‘limi tomonidan 2022 yil 01 fevral kuni ishlab chiqilib va shu kuni dasturga kiritilgan.

**4.Loyiha bo‘yicha taklif:** Beshariq tuman moliya bo‘limi hamda “O‘zbektelekom” AK Farg‘ona filiali o‘rtasida internet va telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi № NET 585-sonli tuzilgan shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi o‘rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi 670-I-sonli Qonunining 10-moddasi (Xo‘jalik shartnomasiga nisbatan qoyiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi PQ-3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxatining 4-bandida, avval tuzilgan shartnomalardagi yetkazib beruvchilar bilan aloqa, internet va teleradiouzatish xizmatlari bo‘yicha xaridlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra:

**XULOSA**

Mazkur shartnoma loyihasini tuzish amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblanadi.

**Beshariq tuman YuXKM**  
**bosh yuriskonsulti:**



**X.Abdurafiqov**